

## TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TARJIMA FAOLIYATINING O'RNI VA OLIB BORILAYOTGAN AMALIY ISHLAR XUSUSIDA

**Ko'charova Feruza Alisher qizi**

**e-mail: feruzakucharova97@gmail.com**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.8433903>**

**Annotatsiya.** Bugungi kunda mamlakatimizda ko'p tillilikni yaratish va turizmni xorijiy tillar bilan birgalikda rivojlantirish eng dolzarb sohalardan biriga aylandi. Ushbu tezisda turizmni rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan amaliy harakatlar, xorijiy tillarni o'qitish bazalarini sonini oshirish evaziga mamlakatda turizm va sohaga oid tarjimonlarni tayyorlab berish, turistik markazlarda gid turoperatorlar sonini oshirish xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Turizm, til, xorijiy til, ko'p tillilik, turist, gid, tilshunoslik, gid markaz, turoperator.

Hozirda mamlakatimizning yorug' kelajagini belgilaydigan, uning kuch-qudratini ta'minlaydigan sohalar juda ko'p. Turizm sohasi, shubhasiz, ular orasida alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq turizm sohasini va xorijiy tillarni o'qitish tizimini, yoshlarimizni o'qitishni jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib kamolga yetishini ta'minlash, qobiliyat hamda iqtidorini yuzaga chiqarish, qalbida yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan beqiyos sa'y-harakatlar zahirida ham ana shu ezgu maqsad mujassamdir. Bugungi kunda tilni o'rganish hayotimizning barcha sohalaridagi har qanday yoshdagi ta'lim oluvchining va insonlarning muloqoti va shaxsiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Tarjimonlik, tilshunoslik sohalarni o'rganish xorijiy tillarni bilish insonning istiqbolini oshirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda qarori asosida xorijiy tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirishni isloh qilish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli qarori qabul qilinishi katta o'zgarish bo'ldi. Milliy madaniyat sarchashmalari turistlarni mamlakatimizga qiziqishini uyg'otish, tashrif buyurgan turistlarni yaxshi sayyohlik xizmatlarini joriy etish, chet elliklar va mahalliy turistlarni mamlakatimizga ko'proq jalb etish, ko'proq ehtiyojini qondirish uchun jon jahdimiz bilan harakat qilib, mamlakatda turistik daromad salohiyatni oshirishga bel bog'lashimiz kerak. Turizmni rivojlantirishda xorijiy tajribadan foydalanish ham yanada ko'proq samara bermoqda. Xalqaro turizmning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari O'zbekistonga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Turizm- bu mintaqalarda ishga oid faolikka yordam beradi, jamoat ishlab chiqarishida band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholini jalb qiladi, mehnatni tatbiq qilish iqtisodiyotning rivojlanishini faollashtiradi. Mintaqaviy resurslardan samarali foydalanishga hamda xizmat ko'rsatish sohasi xodimlarining malakasini oshirishga yordam beradi. Kelgusida aholiga xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi bilan xizmat ko'rsatish sohasida band bo'luvchilar soni tobora ortib boradi. Mablag'ni ko'p talab qilishiga qaramay, turistik sohaga sarflangan sarmoya juda foydali, chunki u o'zini nisbatan tez qoplaydi. Xorijiy turistlardan tushadigan pul tushumlari daromatga aylanadi va milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida aloqada bo'ladi. Birgina turistik mahsulotning asosiy tarkibiga quruvchi birgina transport xizmatlarining 27%ini tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki turist sohasining asosiy tarmog'ida shakllanuvchi bu

xizmat turi, butun bir davlatga transport va u orqali boshqa transportlardan foydalanish hisobiga valyuta tushumini tushishiga, iqtisodiy uzimga olib keldi. Bu esa asosiy xizmatlarning 1/3 qismi degani.

Turizm tushunchasini talqin qilish xususiyatlari va uni milliy va xalqaro miqyosda tashkil etish shakllari borgan sari kengaymoqda. So'nggi yillarda dunyoning barcha mamlakatlarida turizm biznesi jadal rivojlana boshladi. Turli xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan tanishar ekanmiz, turizm biznesining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ushbu sohaning davlat darajasida qanday qabul qilinishiga bog'liqligini ko'rish mumkin. Davlat muassasalari ushbu sohani qo'llab-quvvatlaydi. Har qanday sivilizatsiyalashgan davlat turizm biznesidan daromad olish uchun turizm salohiyatini baholash uchun o'z hududlarini o'rganishga katta mablag' sarflashi kerak. Davlat dasturlari turizm biznesini rivojlantirishga, turistik markazlarni rivojlantirishga, zarur infratuzilmani yaratish va rivojlantirishga, shuningdek, reklama va axborot ta'minotini ta'minlashga xizmat qilishi kerak. Turizm biznesining o'ziga xosligi munosabatlarning keng doirasi bilan bog'liq. Bu munosabatlarga sayohat va dam olishni tashkil etish jarayonlarida ishtirok etuvchi shaxslar kiradi. Mavjud munosabatlar shu qadar xilma-hilki, ular huquqiy tartibga solishning ma'lum bir murakkabligini keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, turizm XXI asrda bu yirik biznes, katta pul va global miqqiyosdagi siyosatdir. Turizm mamlakatlarining iqtisodiyotining ertangi kunidir. Milliy turizm sohasining yangi beshinchi bosqichi 2017-2021 yillarida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasining iqtisodiyotini rivojlantirish va liberlantirishda turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biriga kiritilishi va ayniqsa, bugungi kunda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan, hukumatimiz tomonidan iqtisodiyotda birinchi marotaba turizm sohasiga milliy iqtisodiyotning strategic sector maqomini berilishi, uning istiqbolda rivojlantirishga katta zamin yaratmoqda. Shu tufayli, yurtimizga sayohat qiladigan mahalliy va xorijiy turizmlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun zamonaviy kadrlar turizm sohasini nazariy va amaliy jihatdan mukammal o'rganishi va o'zlashtirishi talab qilinmoqda.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-4428097>.
2. Boltaboyev M.P., Tuxliyev I.S., Safarov B.SH., Abduhamidov S.A., Turizm: nazariya va amaliyoti. T.Barkamol fayz media nashriyotni. 2018. 5.104-betlar. 3. John Trabe. Strategy for Tourism. London Goodfellow Puplichers Limited. 2016 288-bet.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".
4. Cultural studies. The history of world culture: A textbook for universities / Ed. by prof. A. N. Makrkova. - M., 2006. 6. Younas, Ammar, Recent Policies, Regulations and Laws Related to Artificial Intelligence Across the Central Asia (August 1, 2020). Ai Mo Innovation Consultants, 2020, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3664983>
5. Younas, Ammar. "Sustaining Innovative Economy in Fourth Industrial Revolution: A Whitepaper of Uzbek Centered Artificial Intelligence Policy (February 01, 2020)." Available at SSRN 3533410.

6. Younas, Ammar, and Kinza Fatima. "REGULATING NANOTECHNOLOGY TRANSFER IN DIGITALIZED CENTRAL ASIA." DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR (2021): 744-746.
7. Younas, Rehan, and Ammar Younas. "REDUCING YOUTH RADICALISM: STEMMING POLICY APPROCH THROUGH ENGINEERING EDUCATION." International Scientific and Practical Conference World science. Vol. 4. No. 6. ROST, 2017.
8. Younas, Ammar, et al. "Overview of big data and cloud computing laws, regulations and policies in central Asia." Regulations and Policies in Central Asia (August 12, 2020) (2020).
9. Younas, Ammar. "Finding a consensus between philosophy of applied and social sciences: A case of biology of human rights." JournalNX A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN 2581-4230 (2020): 62-75.
10. Юнас, Аммар, Аминжон Каландаров, and Мухаммад Али Турдиалиев. "Legal progress of e-commerce legislation in Central Asia during the COVID-19 period." Общество и инновации 2.6 (2021): 170-176.
11. Younas, Ammar and Chynarbekovna, Tegizbekova Zhyldyz, Harmonizing Law and Innovations in Nanomedicine, Artificial Intelligence (AI) and Biomedical Robotics: A Central Asian Perspective (October 31, 2020). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3722658> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3722658>